

Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar oyi uchun

- I. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Toshkent shahri sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-fevral holatiga ko'ra Toshkent shahrida 11 408 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 738 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 15,4 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 898 tasi (8,0 %) mebel ishlab chiqarishga, 898 tasi (8,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall va buyumlar ishlab chiqarishga, 794 tasi (7,1 %) kiyim ishlab chiqarishga va 741 tasi (6,6 %) rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-fevral holatiga ko'ra



II. Toshkent shahri sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar oylarida Toshkent shahri korxonalari tomonidan 13,9 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	13 853,1	107,1
<i>viloyatlar:</i>		
Uchtepa tumani	593,5	157,8
Bektemir tumani	1 762,7	118,2
Yunusobod tumani	517,6	112,6
Mirzo Ulug'bek tumani	805,4	108,2
Mirobod tumani	977,2	112,2
Shayxontohur tumani	660,0	106,1
Olmazor tumani	858,5	109,4
Sirg'ali tumani	936,0	97,4
Yakkasaroy tumani	479,2	93,9
Yashnobod tumani	2 310,5	101,3
Yangiheyot tumani	1 103,4	109,4
Chilonzor tumani	1 722,8	112,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir tumanida (25 763,7 ming so'm), Chilonzor tumanida (6 217,5 ming so'm), Yashnobod tumanida (7 370,5 ming so'm), Mirobod tumanida (6 291,9 ming so'm) o'rtacha Toshkent shahri darajasi ko'rsatkichidan (4 404,2 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Uchtepa tumanida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 156,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yunusobod tumanida (109,8 %), Olmozor tumanida (110,2 %), Chilonzor tumanida (112,3 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi


yanvar oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 10,3 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (74,5,8 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 2,3 trln so'm (16,6 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1,1 trln so'm (7,9 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 0,1 trln so'm (1,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar oyida






III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida 932,5 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 8,5 % ga ko'paygan), 2 126,2 tonna paxtadan yigirilgan ip (96,3 % ni tashkil qildi), 7 155,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2,2 martaga ko'p) hamda 5 260,6 ming litr pivo (29,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	4,9	3,2	7,2
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	3,8	2,8	2,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar — tonna.	758,8	1 000,6	1 109,1
Pivo – mln litr	5,2	4,1	5,3
Sovutgich va muzlatgichlar — ming dona	5,9	20,3	8,9
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	233,9	201,2	192,9
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna	656,3	889,1	639,4

**2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan
yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:



[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,7 % (2025-yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,3 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,4% ni (2025-yilning yanvar oyida 3,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 27,0 % (20,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,7 % (36,6 %), quyi texnologiyali 41,9 % (39,8 %)ni tashkil etgan.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 115,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	370,9	336,2	389,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 431,2	2 624,1	1 257,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 152,5 % ga o'sish kuzatilgan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 114,7% ga o'sish kuzatildi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 104,3 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	-	351,9	39,2
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	17,7	237,5	19,4
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	50,3	562,1	51,3

*2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4,5 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 25,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Toshkent shahri iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B — Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C — Ishlab chiqarish sanoati

D — Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E — Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

G. Orinbayeva
71 203-80-03 (3510)

Manzil:

